

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

ALLA JANRI VA UNING HOZIRGI YOSHLAR MA’NAVIYATIDAGI O’RNI

Muxlisa Mamasodiqova Abdulloh qizi
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti
IV bosqich talabasi

Annotatsiya: O‘zbek xalq og‘zaki ijodi namunalarining eng qadimiy janri bo‘lgan allaning sifatlari, farzand tarbiyasi va uning ruhiy rivojidadagi o‘rni beqiyos. Hozirda onalar ijrosidan biroz chekingan bu qadimiy qo‘shiqning qayta jonlanishi va oilalarda keng ommalashishi nafaqat o‘zi, balki butun millat ahlining ma‘naviy-ma‘rifiy rivojiga e‘tibor qaratgan inson uchun qiymatli va ahamiyatlidir.

Kalit so‘zlar: o‘zbek xalq og‘zaki ijodi, folklor, alla, xalq qo‘shiqlari, beshik qo‘shiqlari

Annotation: The alla, as the oldest genre of uzbek oral folk tradition, possesses unparalleled qualities and plays a significant role in child rearing and spiritual development. The revival and widespread adoption of this ancient song, currently somewhat diminished in its maternal performance, is valuable and important not only in itself but also for anyone concerned with the moral and educational advancement of the entire nation.

Key words: uzbek oral folk tradition, folklore, alla, folk songs, cardle songs

Аннотация: «Алла» – древнейший жанр узбекского фольклора – имеет несравненную роль в воспитании и духовном развитии детей. Возрождение этой древней песни, которая сейчас несколько менее популярна среди матерей, ценно и значимо не только для него, но и для человека, уделяющего внимание духовно-просветительскому развитию всего народа.

Ключевые слова: узбекский фольклор, фольклор, алла, народные песни, колыбельные.

Badiiy adabiyot – insoniyatning eng qadimgi va eng muhim madaniy yutuqlaridan biridir. U she‘riyat, nasr, drama va boshqa janrlarda ifodalangan bo‘lib, insonning ichki dunyosini, hayotini, va orzularini aks ettiradi. Badiiy adabiyot faqatgina o‘quvchini ko‘ngil ochish bilan cheklanmaydi, balki uning tafakkurini, dunyoqarashini shakllantirishda, ma‘naviy-axloqiy kamol topishida muhim rol o‘ynaydi. Mehnat jarayonining rivoji, kishilar tajribasi va ongining taraqqiyoti og‘zaki adabiyotning rivojlanishi uchun zamin yaratgan. Insonlar asta-sekin turmush tajribalarini, tabiat va jamiyat haqidagi fikr-tushunchalarini obrazli so‘z orqali tasvirlash, bayon etish ko‘nikmalarini yarata boshlaydilar. Badiiy so‘z tajribasining o‘sishi, badiiy did va zavqning takomillashib borishi xilma-xil badiiy shakllarni, adabiy janrlarni vujudga keltiradi. Shu tariqa badiiy so‘z san‘ati yozuv va yozma adabiyotdan ko‘p vaqtlar ilgari og‘zaki ijod shaklida paydo bo‘ladi hamda yozma adabiyotning vujudga kelishiga zamin hozirlaydi. U og‘izdan og‘izga, avloddan avlodga, davrdan davrga o‘tadi. Biroq u dastlab qanday yaratilgan bo‘lsa, har qachon ham aynan shu holicha saqlanib qolmaydi, balki ijodiy qayta ishlanadi, turli xil o‘zgarishlarga uchraydi, yangi-yangi ma‘lumotlar bilan boyiydi, yangi tarixiy

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

sharoitga muvofiqlashadi, keyingi yaratilgan asarlar bilan birga yashaydi, uzoq umr ko‘radi. Shu bilan bir qatorda yozma adabiyotning tajribalaridan ijodiy foydalanadi. Og‘zaki adabiyotning bu turi hozirgi zamonaviy adabiyotda “folklorshunoslik” deb yuridiladi. Qadim-qadim zamonlardan folklor asarlari namunalarini laparchilar, o‘lanchilar, askiyachi va qiziqchilar, qo‘g‘irchoqbozlar, roviylar, maddox va ertakchilar, baxshilar, dostonchilar va qo‘shnochlar xalq o‘rtasida ijro etishgan hamda targ‘ib qilishgan.

Folklor har bir xalqning ma’naviy boyligi va ulug‘ qadriyatlaridan biri. O‘zbek folklorshunoslik ijodi doston, qissa, rivoyat, naql, afsona, mif, latifa, marosim folklorlari, bolalar folklorlari, og‘zaki drama, maqol va hikmatli so‘zlardan iborat.

Insonning ma’naviyatini yuksaltirishda xalq og‘zaki ijodining o‘rni haqida gap ketar ekan, aslida, bu jarayon bolaning tug‘ilishidan boshlanadi. Onalarimiz, momolarimiz aytgan allalar, ertaklar, maqollar va qo‘shiqlar bolaning tili va dunyoqarashi shakllanishida ma’naviy ozuqadir. Har bir yosh vakillarini birday qiziqtiruvchi xalq o‘yinlari esa bolaning ham aqlan, ham jismonan ulg‘ayishida muhim omillardan biri hisoblanadi. Shuningdek, har bir xalqning til boyligi birinchi navbatda, uning og‘zaki ijodida namoyon bo‘ladi. Biror bir xalqning qanday xalqligini bilish uchun uning xalq og‘zaki ijodini o‘rganish zarur. Insoniyat tafakkurining tamal toshi bo‘lmish alla qo‘shiqlari xususida so‘z yuritar ekanmiz, turli millat tadqiqotchilari allaning, ya’ni beshik qo‘shiqlarining paydo bo‘lishi haqida o‘z qarashlarini bayon etganlarini e’tirof etish joiz. Sababi bu sirli qo‘shiq zamirida insoniyat ma’naviyatining yuksalish qoni oqar ekan, dunyodagi har bir xalq hayot yo‘lini alla, ya’ni beshik qo‘shiqlarisiz tasavvur qila olmaymiz.

Rivoyatlarda ma’lum bo‘lishicha, alla qo‘shiqlari qadimda, Odam Ato va Momo Havo davrida paydo bo‘lgan. Vaqt o‘tishi bilan har bir davrning o‘ziga xos jihatlari bilan uyg‘unlashgan holda mukammalashib, yaxlit bir janr sifatida shakllangan. O‘zbek allalari — xonadon qo‘shig‘i. Ayol jinsiga mansub kishi uni yoshligidan o‘rganadi, tevaragida onasi aytgan alla qulog‘ida qoladi, xotirasiga muhrlanadi, alladagi yaxshi fikrlar, ibratlar, umumlashmalar xonadondagi katta-kichikning shuuriga singadi. Ona alla orqali oiladagi kishilarning barchasiga ezgulik tarqatadi. U ezgulik jilvasi ila yaxshi fikrlar mujassamlangan she’riyat orqali oila a’zolarini insonparvarlik g‘oyalari bilan oziqlantiradi.[Abu Ali Ibn Sino.Tib qonunlari 1 kitob Toshkent 1959,293-b]1 Allaning tarbiyaviy kuch-qudrati buyuk, u faqat chaqaloq uchun yaratilgan she’riyat emas, u ayni vaqtda kattalarning ham she’riy merosi.

Alla-yo alla,

Oppoq qizim, alla,

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

Qaymoq qizim, alla,
Go‘zal qizim, alla,
Asal qizim, alla,
Oqcha qizim, alla,
Zoqcha qizim, alla.
Sanam qizim, alla,
Tamtam qizim, alla.
Erka qizim, alla,
Serka qizim, alla.
Chaman qizim, alla,
Saman qizim, alla.

[O. Safarov .Alla yo Alla ,Toshkent 1999-yil140-b 13-bet] Ushbu alla erkalash xususiyatiga ega.[Unda strofik bo‘lak –ikkilik shaklda. Barcha qofiyadosh so‘zlar sifatlash (epitet) vazifasini bajargani holda nuqul satr boshida kelgan: “qizim, alla” murojaatnomasi esa monoton mayin ohangni ta’minlovchi tarkibli radif bo‘lib, butun alla davomida ohang va kuyning yaxlitligini, yagona oqimda davom etishini ta’minlab turibdi. Allalar dastlab har bir ayolning o‘z ohangi o‘z dardi, o‘z yurak nolasi bilan musiqa jo‘rligisiz aytilgan bo‘lsa keyinchalik, bir necha vaqtlardan so‘ng, bizlarni davrimizga kelib ayrim ustoz san’atkorlar, bastakorlar tomonidan allalarga xos musiqalar bastalay boshladilar. Shoirlarimiz alla yo‘nalishiga tushadigan vaznda she‘rlar yozdilar. Shunday qilib xalq og‘zaki ijodining yangi yo‘nalishi musiqa jo‘rligida kuylanadigan zamonaviy allalar yaratildi:

Jon bolam do‘ndiqqinam, Alla-yo alla,
Shirin qo‘zichog‘im,
Alla-yo alla.
Uxla, qo‘zim qunduzim-o alla,
Yum-yum ko‘zing yulduzim-o alla,
Kecha to‘yib uxlasang-o alla,
Quvnoq o‘tar kunduzing-o alla.

Folklor asarlar vaqt o‘tishi bilan davrga qarab o‘zgarishi mumkin, shu jumladan, allalar ham. Qadim zamonlarda onalarimiz o‘z dardlari, g‘am-anduhlarini qo‘shiq, lapar, allalarda kuylagan bo‘lsalar, endilikda, tinch-farovon hayot, baxt-u iqbolni, jannatmakon yurtimizni madh etuvchi qo‘shiq-kuylar, lapar va yallalar, albatta, baxtiyor ona va baxt iqboli bor mustaqil O‘zbekistonimizni madh etuvchi allalar yaratilmoqda.[M.N. O‘zbek xalq allalari .Toshkent ‘FAN’1974 132-B]

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

Folklorni bizning tariximizni, o‘tmishimizni hamda o‘zligimizni o‘zida mujassamlashtirgan bir xazinaga qiyoslasak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Uni saqlash va keyingi avlodga yekatish hamda uni targ‘ib qilish – bu bizning vazifamizdir, chunki folklor ma’naviyatimiz va ma’rifatimiz ko‘zgidir. Shuning uchun ham O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek: “Agar kimki ma’naviyat masalasi – bu faqat Ma’naviyat va ma’rifat markazi yoki tegishli vazirlik va idoralarning ishi, deb o‘ylasa, xato qiladi. Bu davlatimiz va jamiyatimiz, hamma rahbarlar, bizning ishongan tog‘imiz bo‘lgan ilg‘or ziyolilarimiz, barcha-barchamizning eng asosiy va muhim vazifamizdir”.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, bugungi kunda o‘zbek xalqi orasida bolalar uchun allalar kamdan kam ijro etilayotganligiga guvohmiz. Hozirda allalarni xalq orasida qayta jonlantirish va ularning keng miqyosda ijro etilishiga e’tibor qaratish ahamiyatlidir. Bu jarayon nafaqat tarixiy taraqqiyotimizni qadrlash, balki kelajak avlodni buyuk ota-bobolarimizga mos voris bo‘lib yetishiga o‘z hissasini qo‘shadi, bir so‘z bilan aytganda, ma’naviy makonda folklor alohida o‘rin tutadi. Alla qo‘shiqlari xususida qancha so‘z yuritsak ham oz. Bu qo‘shiqlar maktab darsliklariga ham kiritilishi, 6-sinf adabiyot fani dasturidan o‘rin egallagan “Xalq qo‘shiqlari” mavzusi tarkibida o‘rganilishi lozim. Shunda alla qo‘shiqlarining xalq og‘zaki ijodida tutgan o‘rni, uning inson ruhiy kamolotida o‘ziga xos mavqe, bolalar folklori janri sifatida eng salmoqli va keng ko‘lamli qo‘shiqlar sirasiga kirishi xususidagi qarashlar har bir inson ongida o‘zi aksini topadi. Zero, “Azaliy milliy qadriyatlarimiz, ota-bobolarimizdan meros bo‘lib kelayotgan odob-axloq qoidalariga tahdid kuchayib borayotgan hozirgi globallashuv sharoitida ma’naviyat va ma’rifatga, axloqiy tarbiya, yoshlarning bilim olish, kamolga yetishga intilishiga e’tibor qaratish g‘oyat muhim vazifamizdir”, - deb bejiz aytmagan yurtboshimiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ёўлдошева С. Фольклор - этнографик жамоалари услубиёти. “Наврўз” нашрёти, - Тошкент, 2014.
2. Abu Ali Ibn Sino.Tib qonunlari 1 kitob Toshkent 1959,293-b
3. O Safarov .Alla yo Alla ,Toshkent 1999-yil140-b 13-bet
4. Юнусов F. Фольклор жамоа ижрочилиги. – Тошкент, 2021 йил.
5. M.N. O‘zbek xalq allalari .Toshkent ‘FAN’1974 132-B
6. “O‘zbek allasi” nomli risoladagi Nigoraxon Sodiqova to‘plagan allalardan namunalar olindi.
7. M.Jo‘rayev, N.Eshonqulov.Folklorshunoslikka kirish. Toshkent, 2017.